BOJXONA TERMINOLOGIYASINING TASNIFI VA UNING KASBIY MULOQOTDA QO‘LLANILISHI FRANSUZ TILI MISOLIDA

Elmurodov Sh.A.
Samarqand viloyati davlat bojxona boshqarmasi
Samarqand xalqaro aeroporti chegara bojxona posti
elmurodovshohrux580@gmail.com

Annotatsiya:: *Ushbu maqolada fransuz tilidagi bojxona terminologiyasining lingvistik va kasbiy xususiyatlari, uning asosiy turlari hamda kasbiy muloqot jarayonidagi qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida fransuz tilidagi bojxona mavzusiga oid lug‘atlar, maxsus nashrlar va kasbiy matnlarda uchraydigan terminologik birliklar o‘rganilib, ular bojxona terminologiyasi, bojxona-iqtisodiy, bojxona-huquqiy va qonunchilik terminologiyasi, kasbiy-lavozim leksikasi, bojxona nazorati vositalari, xalqaro tashkilotlar nomlari, idiomatik va frazeologik birliklar kabi guruhlarga ajratiladi. Shuningdek, bojxona hujjatlari, bojxona tartib-taomillari, bojxona to‘lovlari, bojxona organlari va faoliyat turlariga oid terminlarning kasbiy kommunikatsiyadagi o‘rni yoritiladi. Maqolada fransuz tilidagi kasbiy leksikani egallash bojxona xodimlarining xorijiy hamkasblar, yo‘lovchilar va tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari bilan samarali muloqotini ta’minlovchi muhim omil ekanligi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *bojxona leksikasi va terminologiyasi, bojxona mavzusidagi matnlar, kasbiy muloqot.*

Abstract: *This article analyzes the linguistic and professional characteristics of customs terminology in French, its main types and use in the process of professional communication. During the study, terminological units found in dictionaries, special publications and professional texts on the subject of customs in French are studied, which are divided into such groups as customs terminology, customs-economic, customs-legal and legislative terminology, professional and positional lexicon, customs control tools, names of international organizations, idiomatic and phraseological units. The role of terms related to customs documents, customs procedures, customs payments, customs authorities and types of activities in professional communication is also highlighted. The article argues that mastering professional vocabulary in French*

is an important factor ensuring effective communication of customs officers with foreign colleagues, passengers and participants in foreign economic activity.

Keywords: *bojxona lug‘ati va terminologiyasi, bojxona mavzusidagi matnlar, kasbiy muloqot.*

Аннотация: *В данной статье анализируются лингвистические и профессиональные характеристики таможенной терминологии на французском языке, ее основные типы и использование в процессе профессиональной коммуникации. В ходе исследования рассматриваются терминологические единицы, встречающиеся в словарях, специальных публикациях и профессиональных текстах по таможенной тематике на французском языке, которые подразделяются на такие группы, как таможенная терминология, таможенно-экономическая, таможенно-правовая и законодательная терминология, профессиональная и позиционная лексика, инструменты таможенного контроля, названия международных организаций, идиоматические и фразеологические единицы. Также подчеркивается роль терминов, связанных с таможенными документами, таможенными процедурами, таможенными платежами, таможенными органами и видами деятельности в профессиональной коммуникации. В статье утверждается, что владение профессиональной лексикой на французском языке является важным фактором, обеспечивающим эффективную коммуникацию таможенников с иностранными коллегами, пассажирами и участниками внешнеэкономической деятельности.*

Ключевые слова: *таможенная лексика и терминология, тексты, связанные с таможней, профессиональная коммуникация.*

Hozirgi vaqtda jamiyatning madaniy-iqtisodiy rivojlanishi jadal kechmoqda. Shu sababli turli faoliyat sohalari, jumladan bojxona sohasi mutaxassislarining kasbiy muloqotiga ehtiyoj ortib bormoqda. Kasbiy mavzulardagi masalalar mahalliy hamda xorijiy hamkasblar bilan muhokama qilinadi. Shu munosabat bilan chet tillarini bilish, shu jumladan xorijiy tillardagi kasbiy terminologiyani egallash muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat olib borish va zamonaviy mehnat bozorida mutaxassisga talab yuqori bo‘lishining zarur shartlaridan biriga aylanmoqda.

Zamonaviy bojxona terminologiyasi fransuz tilidagi bojxona mavzusiga oid asosiy bosma nashrlarda keng qo‘llaniladi. Jumladan: “OMD Actualités” (“Jahon bojxona tashkiloti yangiliklari”), “Douane info” (“Bojxona yangiliklari”), “Un aperçu

de la douane française” / “Agir pour protéger” (“Fransuz bojxonasi haqida umumiy ma’lumot / Himoya qilish uchun harakat qilish”).

Bojxona leksikasi va terminologiyasi fransuz tilidagi elektron lug‘atlarda ham aks etgan:

1. “Glossaire” — atamalar lug‘ati
2. “Lexique des termes douaniers” — bojxona atamalari leksikasi
3. “Lexique douanier” — bojxona leksikasi

Bojxona mavzusidagi matnlar bojxona, bojxona-huquqiy va bojxona-iqtisodiy masalalarni yorituvchi maxsus, kasbga yo‘naltirilgan adabiyot hisoblanadi. Ularda umumiste’moldagi leksika bilan bir qatorda bojxona sohasida ishlovchi xodimlarning kasbiy kompetensiyasini kengaytiruvchi professional terminologiya ham qo‘llaniladi. “OMD Actualités” jurnalining tahlili maxsus leksikani quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tasniflash imkonini berdi:

- Bojxona terminologiyasi: la modernisation douanière — bojxonani modernizatsiya qilish; l’Union douanière — bojxona ittifoqi; les recettes douanières — bojxona tushumlari; une équipe constituée de professionnels de la douane — bojxona mutaxassislaridan iborat jamoa; les visites sur site — joyiga borib ko‘rik o‘tkazish; les administrations douanières — bojxona ma’muriyatlari.

- Bojxona-iqtisodiy terminologiya: la perception des recettes — tushumlarni undirish; la gestion douanière — bojxona boshqaruvi; l’harmonisation des régimes douaniers — bojxona rejimlarini uyg‘unlashtirish; le fonctionnement du système du commerce international — xalqaro savdo tizimining faoliyati; le commerce illicite lucratif — daromadli noqonuniy savdo.

- Bojxona-huquqiy va qonunchilik terminologiyasi: la législation et la politique douanières — bojxona qonunchiligi va siyosati; les mouvements illégaux de déchets dangereux — xavfli chiqindilarning noqonuniy harakati; des autorités douanières — bojxona organlari; les nouvelles lois — yangi qonunlar; en présence des autorités douanières, de police et de gendarmerie — bojxona, politsiya va jandarmeriya vakillari ishtirokida; en vigueur — amalda bo‘lgan; des modèles et des directives — namunalar va yo‘riqnomalar; vérifier que les personnes, les produits importés sont bien licites et conformes au droit — shaxslar va import qilinayotgan mahsulotlarning qonuniy hamda huquq talablariga muvofiqligini tekshirish; des dispositions nationales et des accords internationaux — milliy qoidalar va xalqaro bitimlar; la Convention de Bâle — Bazel konvensiyasi; l’Accord de reconnaissance mutuelle — o‘zaro tan olish to‘g‘risidagi bitim.

- Bojxona ta’lim muassasalari nomlari: : l’école des douanes de Tourcoing - Turkuen bojxona maktabi, l’école des cadres pour la gestion des frontières-chegaralarni boshqarish bo‘yicha kadrlar maktabi, la Direction nationale du recrutement et de la formation professionnelle (DNRFP)- Fransiya bojxonasining Milliy ishga qabul qilish va kasbiy tayyorgarlik boshqarmasi, Université d’Auvergne - Overn universiteti, l’Université de Canberra en Australie - Avstraliyadagi Kanberra universiteti, des universités douanières - bojxona universitetlari, le Centre de formation douanière de Casablanca (Maroc) - Marokashning Kasablanka shahridagi bojxona tayyorgarligi markazi, l’école nationale des douanes de Tunisie - Tunis milliy bojxona maktabi hamda l’école nationale des douanes d’Oran (Algérie) - Jazoirning Oran shahridagi milliy bojxona maktabi.

- Kasbiy-lavozim leksikasi: le secrétaire général - bosh kotib, le Directeur des Télé-communications et du Contrôle - telekommunikatsiyalar va nazorat direktori, le Président-directeur général -prezident-bosh direktor, le Responsable du développement des systèmes de sécurité aux frontières - chegara xavfsizligi tizimlarini rivojlantirish bo‘yicha mas’ul shaxs, Président du Conseil de l’OMD - Jahon bojxona tashkiloti kengashi raisi, le secrétaire exécutive de la Convention de Bâle - Bazel konvensiyasining ijrochi kotibi, Co-secrétaire au Bureau central des douanes et accises - bojxona va aksizlar markaziy byurosi kotibi, le Directeur de la Direction nationale du recrutement et de la formation professionnelle (DNRFP) des douanes françaises - Fransiya bojxonasining Milliy ishga qabul qilish va kasbiy tayyorgarlik boshqarmasi direktori, le Directeur de l’administration douanière et fiscale - bojxona va soliq ma’muriyati direktori, le Sous-secrétaire - vazir o‘rinbosari.

- Xalqaro tashkilotlar nomlari: l’Organisation mondiale des douanes - Jahon bojxona tashkiloti, la Commission européenne - Yevropa komissiyasi, l’Organisation Mondiale de la Santé - Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, les Sociétés Nationales de la Croix-Rouge et du Croissant-Rouge - Qizil Xoch va Qizil Yarim Oy milliy jamiyatlari, la Convention de Kyoto révisée - qayta ko‘rib chiqilgan Kioto konvensiyasi, l’Organisation Internationale pour les migrations - Xalqaro migratsiya tashkiloti, l’Union européenne - Yevropa ittifoqi, l’Organisation mondiale du commerce - Jahon savdo tashkiloti.

- Bojxona nazorati joylari va vositalari: les points de contrôle terrestres et maritimes - quruqlikdagi hamda dengizdagi nazorat punktlari; les systèmes d’inspection non intrusifs - intruziv bo‘lmagan tekshiruv tizimlari; les systèmes de contrôle par rayonnement - nurlanish orqali nazorat tizimlari; le rayonnement X - rentgen nurlari; le «Backscatter Van» ou le camion fonctionnant par rétrodiffusion -

qayta sochilish tamoyilida ishlaydigan “Backscatter Van” avtomobili; le contrôle par scanners aux frontières - chegaralardagi skaner nazorati; le système d’inspection du véhicule - transport vositasini tekshirish tizimi; l’appareil mobile doté d’un système de balayage à rayons gamma - gamma nurlari orqali skanerlash tizimi o‘rnatilgan ko‘chma qurilma; l’inspection par rayon X - rentgen tekshiruvi; - les types d’instruments de détection du rayonnement - statsionar va ko‘chma nurlanishni aniqlash asboblari; fixes ou portables moniteurs-portiques fixes de contrôle du rayonnement - nurlanishni nazorat qiluvchi statsionar portal-monitorlar; détecteurs de rayonnement sur des personnes - insonlarda nurlanishni aniqlovchi detektorlar; détecteurs portatifs de recherche de neutrons - neytronlarni qidirishga mo‘ljallangan ko‘chma detektorlar; dispositifs portatifs d’identification de radionucléides - radionuklidlarni aniqlovchi ko‘chma qurilmalar; scanners portatifs de rayonnement - ko‘chma radiatsion skanerlar; spectromètres de rayonnement gamma - gamma-nurlanish spektrometrlari.

- Idiomalar va frazeologik birikmalar: le guichet unique — yagona darcha; l’analyse des risques porte ses fruits — xavflarni tahlil qilish natija bermoqda; une vision des choses sous un autre angle — masalalarga boshqa nuqtayi nazardan qarash; un fléau vieux comme le monde — dunyo kabi qadimiy balo; la douane a un rôle-clé — bojxona muhim o‘rin tutadi; une transparence accrue des procédures et des contrôles — tartib-taomillar va nazoratning oshirilgan shaffofligi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan lug‘atlarda ifodalangan kasbiy terminlar majmuini muayyan mezonlar asosida quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- Bojxona tartib-taomillari turlari: la procédure de déclaration simplifiée — soddalashtirilgan deklaratsiya tartibi.
- Bojxona to‘lovlari turlari: le droit de douane — bojxona boji.
- Bojxona hujjatlari: le Code des douanes — Bojxona kodeksi; le Carnet TIR — Xalqaro yo‘l tashuvlari daftarchasi (TIR karneti); la Carte d’exportation temporaire — vaqtinchalik eksport kartasi; le Certificat d’exportation — eksport sertifikati; le Certificat de conformité aux normes de qualité — sifat standartlariga muvofiqlik sertifikati; la lettre de transport aérien (LTA) — avia yukxati.
- Turli bojxona tashkilotlari, jumladan xalqaro tashkilotlar:

l’Organisation mondiale du commerce (OMC) — Jahon savdo tashkiloti;

l’Organisation mondiale des douanes (OMD) — Jahon bojxona tashkiloti;

l’Association Européenne de Libre Échange (AELE) — Yevropa erkin savdo uyushmasi;

l’Union européenne (UE) — Yevropa ittifoqi.

- Bojxona organlari muayyan rol o‘ynaydigan jarayonlar, shu jumladan jinoiy xarakterdagi jarayonlar:

la contrebande — kontrabanda.

- Bojxona faoliyati turlari:

les agents en douane — bojxona brokerlari;

la vérification des marchandises — tovarlarni tekshirish.

- Bojxona bo‘limlari:

le bureau de dédouanement — bojxona rasmiylashtiruvi bo‘limi;

le bureau de départ — jo‘natish punkti;

les Centres de renseignement douanier — bojxona axborot markazlari.

- Bojxona hududlari:

le territoire douanier — bojxona hududi.

Shunday qilib, yuqorida nomi keltirilgan, ma’lumot to‘plash va saqlash vazifasini bajaruvchi lug‘atlarda bojxona xodimlari tomonidan kasbiy faoliyatda qo‘llaniladigan professional leksika hamda terminologiya mavjud. Bu birliklar hujjatlar bilan ishlashda, tashqi iqtisodiy faoliyat olib boruvchi mijozlar va yo‘lovchilar bilan muloqotda, shuningdek hamkasblar bilan kasbiy aloqalarda ishlatiladi.

Tovarlar va transport vositalari eksporti hamda importini nazorat qilish, yo‘lovchilarning chegaradan o‘tishi va ularning xavfsizligi bojxona xodimlari kasbiy muloqotining asosiy masalalari hisoblanadi. Ularning ko‘pchiligi chet tillarini bilishga ehtiyoj sezadi. Yuk bojxona posti inspektori faoliyati xorijiy yo‘lovchilar bilan aloqalarni nazarda tutadi. Huquqni muhofaza qilish bloki, hujjatlar bilan ta’minlash bo‘limi, xalqaro hamkorlik bo‘linmasi va matbuot xizmati xodimlari esa ko‘pincha chet tilidagi hujjatlar hamda kasbga yo‘naltirilgan adabiyotlar bilan ishlaydilar.

Zamonaviy jamiyatning jiddiy va keskin muammolaridan biri — savdo belgilarini qalbakilashtirish va piratlikdir. Shu bois bu masalalar doimiy ravishda kasbiy muloqotlarning diqqat markazida bo‘ladi. “Qalbakilashtirish va piratlikka qarshi kurash” mavzusi “OMD Actualités” jurnali sahifalarida ko‘p uchraydi, shuningdek turli davlatlar bojxona vakillari tomonidan konferensiyalar va davra suhbatlarida muhokama qilinadi.

Eng ko‘p ishlatiladigan kasbiy iboralar quyidagilardan iborat:

- la lutte contre la contrefaçon et la piraterie — qalbakilashtirish va piratlikka qarshi kurash;
- le terrorisme économique — iqtisodiy terrorizm;
- des contrefacteurs — qalbakilashtiruvchilar;
- les administrations douanières — bojxona ma’muriyatlari;

- combattre ce fléau — ushbu baloga qarshi kurashish;
- faire face à un trafic annuel — yillik noqonuniy savdo oqimiga qarshi turish;
- l’industrie du crime — jinoyat industriyasi;
- le commerce illicite — noqonuniy savdo;
- franchir plusieurs frontières — bir necha chegaradan o‘tish;
- cacher l’origine réelle de la marchandise — tovarning haqiqiy kelib chiqishini yashirish;
- le droit d’auteur — mualliflik huquqi;
- lutter plus efficacement contre ce phénomène de fraude — ushbu firibgarlik hodisasiga qarshi yanada samarali kurashish;
- les services douaniers — bojxona xizmatlari;
- le commerce illicite de la contrefaçon et de la piraterie — qalbakilashtirish va piratlikka oid noqonuniy savdo;
- des détenteurs de droits — huquq egalari.

«OMD Actualités» jurnalining 62-sonida ushbu mavzuga «Gestion des risques: un outil douanier crucial» («Xavflarni boshqarish: muhim bojxona vositasi») nomli butun bir bo‘lim bag‘ishlangan. Unda muhokama qilinadigan masalalar xilma-xil: «À propos de la gestion des risques» («Xavflarni boshqarish haqida»), «Premiers résultats de l’enquête sur la gestion du risque douanier» («Bojxona xavfini boshqarish bo‘yicha tadqiqotning dastlabki natijalari»), «Gestion des risques: que gère-t-on réellement?» («Xavflarni boshqarish: aslida nimani boshqaryapmiz?»), «Activités de l’OMD en matière de risque» («JBTning xavflar sohasidagi faoliyati»).

Eng ko‘p qo‘llanadigan kasbiy iboralar:

- identifier et limiter les risques au niveau opérationnel — operatsion darajada xavflarni aniqlash va cheklash;
- l’évaluation des risques — xavflarni baholash;
- les modèles de profils/d’indicateurs de risques — xavf profillari va ko‘rsatkichlari modellari;
- le Réseau douanier de lutte contre la fraude — firibgarlikka qarshi kurash bo‘yicha bojxona tarmog‘i;
- la circulation transfrontalière des marchandises, des chargements et des personnes — tovarlar, yuklar va shaxslarning transchegaraviy harakati;
- une législation moderne — zamonaviy qonunchilik;
- la collecte et le partage d’informations — axborotni yig‘ish va almashish;
- sans entraver la circulation du commerce licite — qonuniy savdo harakatiga to‘sqinlik qilmagan holda.

Noqonuniy giyohvand moddalar tashuvi bojxona uchun eng jiddiy muammolardan biridir. Shuning uchun bu turdagi jinoyatlarga qarshi kurash mavzusi jurnal sahifalarida, turli konferensiyalar va forumlarda eng ko‘p muhokama qilinadigan masalalardan biri sanaladi.

Eng ko‘p uchraydigan kasbiy iboralar quyidagilar:

- le trafic illicite de drogues — giyohvand moddalarning noqonuniy savdosi;
- destruction de produits stupéfiants — giyohvandlik vositalarini yo‘q qilish;
- sensibiliser le public au problème de la drogue — jamoatchilik e’tiborini giyohvandlik muammosiga qaratish;
- le rôle important de la douane — bojxonaning muhim roli;
- démontrer la mobilisation des administrations douanières en matière de lutte anti-drogue — bojxona ma’muriyatlarining giyohvandlikka qarshi kurashdagi safarbarligini namoyish etish.

Shunday qilib, fransuz tilini o‘rganish va kasbiy leksikani egallash kasbiy muloqot bilan bevosita bog‘liqdir. Kasbga yo‘naltirilgan bojxona adabiyotlari bilan ishlash, xorijiy hamkasblar bilan kasbiy muloqotlarda qatnashish chet tilida, xususan fransuz tilida, kasbiy leksika va terminologiyani puxta o‘rganish hamda qo‘llashga yanada jiddiy yondashishni talab qiladi.

Jahon savdo tashkiloti va Yevropa ittifoqining rasmiy tillaridan biri bo‘lgan fransuz tilini bilish, uning kasbiy leksikasini amalda qo‘llash shaxsga madaniyatlararo muloqot va xalqaro jarayonlarning to‘laqonli ishtirokchisi bo‘lish uchun noyob imkoniyatlar beradi. Bojxona ishi sohasida kasbiy fransuz tilini o‘rganish va undan foydalanish yuqori professionalizm, muvaffaqiyatli faoliyat hamda zamonaviy mehnat bozorida talab yuqori bo‘lishining garovidir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, fransuz tilidagi bojxona terminologiyasi o‘zining lingvistik xususiyatlari, mazmuniy ko‘lami va kasbiy qo‘llanish doirasi jihatidan murakkab hamda tizimli leksik qatlamni tashkil etadi. Tadqiqot davomida bojxona sohasiga oid terminologik birliklar mazmun-mohiyati va qo‘llanish xususiyatlariga ko‘ra bojxona terminologiyasi, bojxona-iqtisodiy, bojxona-huquqiy va qonunchilik terminologiyasi, kasbiy-lavozim leksikasi, bojxona nazorati vositalari, xalqaro tashkilotlar nomlari, bojxona hujjatlari, bojxona tartib-taomillari, bojxona to‘lovlari, bojxona bo‘limlari va hududlari, shuningdek idiomatik va frazeologik birliklar kabi guruhlarga ajratilishi aniqlandi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur terminologik birliklar nafaqat maxsus lug‘atlar va kasbiy nashrlarda, balki bojxona hujjatlarini rasmiylashtirish, bojxona

nazoratini amalga oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari va yo‘lovchilar bilan muloqot qilish, xalqaro hamkorlik hamda kasbiy axborot almashinuvi jarayonlarida ham faol qo‘llaniladi. Shu jihatdan bojxona terminologiyasini o‘zlashtirish mutaxassisning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, fransuz tilidagi kasbiy bojxona terminologiyasini o‘rganish bojxona xodimlarining xorijiy hamkasblar, yo‘lovchilar va tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari bilan samarali professional muloqot olib borish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda, kasbga yo‘naltirilgan hujjatlar va maxsus adabiyotlar bilan ishlashda fransuz tilidagi terminlarni to‘g‘ri anglash va amaliyotda qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, fransuz tilidagi bojxona terminologiyasini tizimli ravishda tasniflash, o‘rganish va amaliy kasbiy muloqotga tatbiq etish nafaqat til kompetensiyasini, balki bojxona mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur yo‘nalishda maxsus terminologik lug‘atlar, o‘quv qo‘llanmalar va kasbiy fransuz tili materiallarini takomillashtirish xalqaro bojxona hamkorligini rivojlantirish hamda zamonaviy mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Филология и человек. 2013. №3 *Г.А. Сосунова*

2. OMD Actualités , 63-son, 2010-yil oktabr. Nashriyotchi: Jahon bojxona tashkiloti, Bryussel, Belgiya.

3. OMD Actualités , 54-son, 2007-yil oktabr. Nashriyotchi: Jahon bojxona tashkiloti, Bryussel, Belgiya.

4. OMD Actualités , 59-son, 2010-yil iyun. Nashriyotchi: Jahon bojxona tashkiloti, Bryussel, Belgiya.

5. OMD Actualités , 60-son, 2009-yil oktabr. Nashriyotchi: Jahon bojxona tashkiloti, Bryussel, Belgiya.

6. OMD Actualités , 62-son, 2010-yil iyun. Nashriyotchi: Jahon bojxona tashkiloti, Bryussel, Belgiya.

7. OMD Actualités , 65-son, 2011-yil iyun. Nashriyotchi: Jahon bojxona tashkiloti, Bryussel, Belgiya.